



Eng ulug' maqsadlarni ko'zlashga o'rgan!

Bugun 17 fevral O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Ibrohim Yuldashev Teatr san'ati fakulteti "Qo'g'irchoq teatr rejissyorligi", "Qo'g'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 1-2-kurs o'zbek va rus guruhlarini bilan erkin muloqot olib bordilar.



Mazkur muloqotda institut rahbari yoshlarimizga yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim sifatiga e'tibor qaratish, badiiy mutolaani oshirish, nutq madaniyati, sahna nutqi, adabiyotga oshnolik, ijodiy kreativlikni oshirish borasida so'zladilar. Shuningdek, oliy ta'lim muassasasida olib borilayotgan ilmiy-ijodiy islohotlar, innovatsion smart auditoriyalar sonini ko'paytirish, xorij tillarini biladigan talabalarni xalqaro doiradagi stajirovka dasturlari bo'yicha faollikni oshirish borasida takliflar o'rtaga tashlandi.



Ibrohim Yuldashev taniqli o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning Avlodlar dovoni asaridan parcha o'qib berdilar. Ayniqsa, adabiy asardagi "Eng ulug' maqsadlarni ko'zlashga o'rgan" shiori chuqur tahlil etildi.

Kelgusida iqtidorli talabalar bilan institutda kitobxonlik tanlovi, insholar, badiiy asar tahlili kabi turli musobaqalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Endilikda talabalarni mazkur jarayonlarda faol bo'lishga bel bog'lashdi.

Uchrashuv so'ngida talaba-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat etishdi, mavjud masalalar bo'yicha takliflar o'rganib chiqildi.



Institut rahbarining mana shunday ochiq muloqotlari talabavoshlar uchun ruhiy va ijodiy motivatsiya bo'lib, ularning ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or tashabbuslar soni ortaversin!



0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Matbuot kotibi